

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Saipova Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	5
A.T.Nazarov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar	9
E.T.Umarov Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari	12
M.A.G'ofurova Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari	21
L.S.Isroilova Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limni tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi	27
G.T.Hojikarimova Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish	31
A.A.Abdumanofov Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений	36
H.H.Бобожонов, П.Д.Мамутов Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов	40
M.A.Esonmirzayeva Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	43
M.A.Esonmirzayeva Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar	47
E.E.Tadjibayev Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati	51
S.A.Maxmudova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish	55
M.E.Madaminova Talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish mazmuni va metodik asoslari	59
M.B.Kamoldinov Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi	63
Z.A.Davlataliyeva Talabalarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari	67
F.A.Hamdamiyeva Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli	71
B.A.G'ofurova Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish	75
N.O.Xaydarova Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari	78
U.I.Obidjanov Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va	



UO'K: 81'42:81'27:808

KOMPOZITSION BOG'LANISHLI NUTQNI SHAKLLANTIRISHGA OID ILMIY-NAZARIY QARASHLAR**SCIENTIFIC-THEORETICAL VIEWS ON THE FORMATION OF COMPOSITIONALLY COHERENT SPEECH****НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ КОМПОЗИЦИОННО-СВЯЗНОЙ РЕЧИ****Saipova Hilola Abduhamitovna** 

Farg'ona davlat universiteti, Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Kompozitsion bog'lanishli nutq tushunchasi haqida gapirganda, avvalo, nutqning izchilligi, mazmuniy yaxlitligi, g'oyaviy-mantiqiy tugallanganligi, badiiy yoki ilmiy ifoda vositalaridan samarali foydalanilganligi nazarda tutiladi. Nutq faqat til birliklarining ketma-ket qo'shilishi emas, balki ularning mantiqiy, grammatik va mazmuniy aloqasidan tashkil topgan murakkab tizimdir. Shaxsning kompozitsion jihatdan to'liq nutq qurish malakasi uning fikrlash darajasi, tafakkur kengligi va nutqiy kompetensiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Abstract

When talking about the concept of compositional speech, first of all, it is meant the consistency, content integrity, ideological and logical completion of the speech, the effective use of artistic or scientific means of expression. Speech is not only a series of language units, but a complex system consisting of their logical, grammatical and meaningful connection. The ability of a person to make a compositionally complete speech is closely related to his level of thinking, breadth of thinking and speech competence.

Аннотация

Когда говорят о понятии композиционной речи, прежде всего, подразумевают последовательность, содержательную целостность, идейно-логическую завершенность речи, эффективное использование художественных или научных средств выразительности. Речь – это не просто ряд языковых единиц, а сложная система, состоящая из их логической, грамматической и смысловой связи. Способность человека произносить композиционно законченную речь тесно связана с уровнем его мышления, широтой мышления и речевой компетентностью.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, kompetensiya, nutq, bog'lanish, mazmun, g'oya, grammatika, mantiqiy, fikr, rivojlanish, shakllantirish.

Keywords: composition, competence, discourse, svyaz, soderjanie, idea, grammar, logic, mysl, razvitie, formation.

Ключевые слова: композиция, компетенция, дискурс, связь, содержание, идея, грамматика, логика, мысль, развитие, формирование.

KIRISH

Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirish masalasi tilshunoslik, pedagogika, psixologiya va metodika sohalarida eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biridir. Nutq madaniyati va uning tarkibiy qismlari, xususan, kompozitsion jihatdan to'liq, izchil, mazmunli, mantiqan tugallangan nutqni yaratish shaxsning tafakkur faoliyati, muloqot malakasi, madaniy saviyasi hamda ijtimoiy faoliyatini belgilab beradi. Shuning uchun ham mahalliy va xorijiy olimlar bu masalaga doimiy ravishda murojaat qilib kelganlar, nazariy asoslarni ishlab chiqqanlar va amaliy yo'nalishlarni tavsiya etganlar. Kompozitsion bog'lanishli nutq tushunchasi haqida gapirganda, avvalo, nutqning izchilligi, mazmuniy yaxlitligi, g'oyaviy-mantiqiy tugallanganligi, badiiy yoki ilmiy ifoda vositalaridan samarali foydalanilganligi nazarda tutiladi. Nutq faqat til birliklarining ketma-ket qo'shilishi emas, balki ularning mantiqiy, grammatik va mazmuniy aloqasidan tashkil topgan murakkab tizimdir. Shaxsning kompozitsion jihatdan to'liq nutq qurish malakasi uning fikrlash darajasi, tafakkur kengligi va nutqiy kompetensiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida kompozitsion bog'lanishli nutq ko'proq o'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirish, matn tuzish, insho yozish, og'zaki hikoya qilish jarayonlarida tadqiq qilingan. Masalan, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon kabi ma'rifatparvar ziyolilar XX asr boshlarida o'quvchilar nutqini boyitish, ularni to'g'ri, izchil, mantiqiy va badiiy ifoda qila olishga o'rgatish masalalariga katta e'tibor qaratganlar. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida nutq madaniyatini axloqiy tarbiyaning muhim qismi sifatida talqin qilib, nutqdagi izchillik va ifodaviylikka alohida urg'u bergan. Keyinchalik, mustaqillik davrida mahalliy tilshunos olimlar, xususan, Sh.Rahmatullayev, A.Madrahimov, N.Mahmudov, M.Yoqubov, N.Jabborov va boshqalar nutq madaniyati, matn lingvistikasi, kommunikativ kompetensiya masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan yoritib, o'quvchilar nutqini shakllantirishda kompozitsion yaxlitlikning ahamiyatini alohida ko'rsatib berdilar. N.Mahmudov matnning tuzilishi, uning mazmuniy yaxlitligi, gaplar orasidagi bog'lanish, matnning ichki va tashqi kompozitsion jihatlari haqida ilmiy asoslangan fikrlarni ilgari surdi. M.Yoqubov esa boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga matn tuzishni o'rgatishning metodik asoslarini ishlab chiqib, hikoya, tavsif, munozara kabi yozma ish turlarida kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid usullarni taklif etdi.

Psixologiya nuqtayi nazaridan ham kompozitsion nutq masalasi muhim hisoblanadi. L.S.Vygotskiy, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn, P.Ya.Galperin kabi psixologlar nutq va tafakkur o'rtasidagi uzviy aloqani chuqur tahlil qilib, nutqiy faoliyatning bosqichlari, uning ongli jarayon sifatidagi xususiyatlarini aniqlab berganlar. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi nazariyasi o'quvchi nutqini shakllantirish jarayonida kompozitsion izchillikni ta'minlashda keng qo'llanadi. Chunki o'quvchi mustaqil ravishda to'liq nutq tuzishga qiynalganda, kattalar yoki malakali o'qituvchi yordamida buni amalga oshiradi va asta-sekin mustaqillikka erishadi. Xorijiy tilshunoslikda ham kompozitsion bog'lanishli nutq masalasi turlicha talqin qilingan. Masalan, M.Hallidayning tizimli-funksional lingvistika nazariyasida matnning bog'lovchilik va mazmuniy izchillik xususiyatlari asosiy o'rinda ekanligini ta'kidlaydi. Halliday nutqning kompozitsion bog'lanishini faqat grammatik emas, balki mazmuniy jihatdan ham ko'rib chiqadi. Amerikalik olim Noam Chomsky esa nutqiy kompetensiya va performans tushunchalarini kiritib, insonning ichki grammatik tizimi va uni qo'llashdagi faoliyatini farqladi. Bu qarash ham o'quvchilarda nutqni shakllantirishda kompozitsion bog'lanishning ahamiyatini ochib beradi. Chunki nutq faqat grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishi emas, balki u maqsadga yo'naltirilgan, mazmuniy jihatdan izchil va tushunarli bo'lishi kerak.

Yevropa psixolingvistikasida kompozitsion nutq masalasi ko'proq matn psixologiyasi bilan bog'liq holda o'rganilgan. Masalan, K.Buhlerning "organon modeli"da til belgisi kommunikatsiya vositasi sifatida uch funksiyani bajarishi – ifodalash, murojaat qilish va ta'sir o'tkazish – ko'rsatiladi. Bu uchala funksiya izchil nutqda o'z ifodasini topadi. Nutqning kompozitsion yaxlitligi esa bu funksiyalarni uyg'un amalga oshirishni ta'minlaydi. Mahalliy va xorijiy olimlarning umumiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilganda, ularning asosiy nuqtalari bir-biriga yaqin ekanini ko'rish mumkin. Ular nutqning kompozitsion bog'lanishini shaxsning tafakkur rivoji, muloqot kompetensiyasi, til birliklaridan ongli foydalanish ko'nikmalari bilan bog'lab talqin qiladilar. Farqi shundaki, mahalliy olimlar ko'proq o'quvchilarda nutqni o'stirish metodikasiga e'tibor qaratgan bo'lsalar, xorijiy olimlar nazariy lingvistika va psixolingvistika nuqtayi nazaridan yondashganlar. Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid nazariy qarashlar o'quv jarayonida amaliy ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn tuzishga o'rgatish, ular bilan hikoya yozish, o'qilgan matn asosida qayta hikoyalash mashqlari bajarish kompozitsion izchillikni shakllantiradi. O'qituvchi matnning kirish, asosiy qism va xulosadan iborat qismlarini ajratishni, gaplar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni ko'rsatishni o'rgatadi. Shuningdek, yozma nutqda kompozitsion bog'lanish vositalaridan to'g'ri foydalanish ham muhim. Sinonimlardan foydalanish, bir xil so'zlarni qayta-qayta ishlatmaslik, gaplar orasida mos bog'lovchilarni qo'llash, mazmuniy izchillikni ta'minlash yozma nutqni mukammal qiladi. Og'zaki nutqda esa intonatsiya, pauza, urg'u kabi vositalar kompozitsion yaxlitlikni ta'minlashda xizmat qiladi. Hozirgi kunda kommunikativ yondashuv asosida olib borilayotgan ta'lim jarayoni ham o'quvchilar nutqini shakllantirishda kompozitsion bog'lanishning ahamiyatini oshirmoqda. Chunki kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan diskursiv kompetensiya matnni mantiqiy, izchil, tushunarli shaklda qurish ko'nikmalarini qamrab

oladi. Shu bois, o'quvchilarda bunday kompetensiyani shakllantirish kompozitsion bog'lanishli nutqni o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, xorijiy tillarni o'qitishda ham kompozitsion bog'lanish masalasi muhim o'rin tutadi. Ingliz, rus, nemis tilini o'rganishda matn yozish, esse tuzish, og'zaki monolog va dialoglarni shakllantirish jarayonida ham kompozitsion izchillik talab etiladi. Chet el metodistlari, masalan, J. Harmer, D. Brown, H. Douglas kabi olimlar yozma nutqni o'rgatishda "drafting and revising" bosqichlarini taklif etadilar, ya'ni avval o'quvchi o'z fikrini erkin bayon qiladi, keyin esa uni kompozitsion jihatdan yaxlit, grammatik jihatdan to'g'ri va mantiqiy izchil shaklga keltiradi. Umuman olganda, kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirish masalasi bugungi kunda ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lib qolmoqda. Mahalliy olimlarning nutq madaniyati, matn lingvistikasi, pedagogik metodika borasidagi tadqiqotlari xorijiy olimlarning psixolingvistika, kognitiv lingvistika va kommunikativ yondashuv asosidagi izlanishlari bilan uyg'unlashib, yagona ilmiy maydonda o'zaro boyitmoqda. Bu esa o'quvchi shaxsida mustaqil, izchil, mazmunli va kompozitsion jihatdan to'liq nutqni shakllantirish imkonini bermoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirish masalasi nafaqat lingvistika, balki pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik va hatto falsafa bilan ham bevosita bog'liqdir. Chunki inson nutqi inson tafakkurining mahsuli bo'lishi bilan birga, uning ijtimoiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va kommunikativ ehtiyojlarini ifodalaydi. Nutqning kompozitsion bog'lanishi deganda odatda ikki asosiy jihat tushuniladi: birinchisi, nutqning mantiqiy izchilligi va mazmuniy yaxlitligi; ikkinchisi, nutqning tashqi shakli, ya'ni matnning tuzilishi, qismlarning o'zaro aloqasi, gaplarning ketma-ketligi va o'zaro bog'lanishidir. Bu ikki jihat bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi, chunki mazmun shakl orqali namoyon bo'ladi, shakl esa mazmunga xizmat qiladi. Mahalliy tilshunoslar va metodistlar o'quvchilar nutqini shakllantirish masalasini o'rganar ekan, ularning asosan yozma nutq orqali izchil fikrlash va nutqiy malaka hosil qilishiga e'tibor qaratganlar. Masalan, N. Mahmudov matnning ichki va tashqi strukturasi farqlaydi. Ichki struktura matnning mazmuniy tizimini, ya'ni g'oya, mavzu, asosiy fikr va xulosaning uyg'unligini ifodalaydi. Tashqi struktura esa matnning kompozitsion bo'linmalari – kirish, asosiy qism va xulosaning mantiqan bog'lanishini anglatadi. Bunday yondashuv shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar matn yaratishga o'rgatilayotganda, ularga avvalo mazmuniy izchillikni ta'minlash, so'ngra esa uni shakl jihatdan mukammal ifodalash topshiriladi. Shu sababdan ham maktab darsliklarida insho yozish, matn tuzish mashqlari doimo matn qismlarini to'g'ri joylashtirish, gaplar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash va mazmuniy tugallanganlikni ta'minlashga qaratiladi. Psixologik nuqtayi nazardan, kompozitsion bog'lanishli nutqning shakllanishi bolalarning kognitiv rivojlanish darajasiga chambarchas bog'liqdir. L.S. Vygotskiy nutq va tafakkur o'rtasidagi aloqani tahlil qilar ekan, bolaning til vositalaridan ongli foydalanishi asta-sekin rivojlanishini ko'rsatadi. Unga ko'ra, bola dastlab oddiy so'z birikmalaridan foydalanib fikr bildiradi, keyinchalik gap darajasida, so'ngra esa izchil matn yaratish bosqichiga o'tadi. Bu jarayonda kattalar yordamining, ya'ni pedagogik rahbarlikning ahamiyati beqiyosdir. Vygotskiy ilgari surgan "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi shuni anglatadiki, bola mustaqil ravishda bajarolmaydigan vazifani kattalar yoki tajribali hamkor yordamida bajaradi va asta-sekin mustaqil bajara olish darajasiga ko'tariladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'quvchilarga kompozitsion izchil nutq tuzishni o'rgatish uchun ularga doimiy metodik yordam ko'rsatish, tayanch sxemalar, reja asosida ishlash, matn qismlarini belgilash kabi mashqlar berish zarur.

Nutqning kompozitsion tuzilishi deganda matnning boshlanishi, rivojlanishi va yakunlanishi o'rtasidagi aloqadorlik, asosiy va ikkinchi darajali g'oyalar uyg'unligi, uslubiy birligi tushuniladi. Shu jihatdan qaraganda, kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirish ta'lim jarayonida ham, ilmiy faoliyatda ham, shuningdek, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida insonning muloqotga kirishish qobiliyatida yetakchi o'rin tutadi.

XULOSA

Demak, mahalliy va xorijiy ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u lingvistik, psixologik, pedagogik va metodik omillarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon ta'lim tizimida muntazam, bosqichma-bosqich olib borilishi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy bog'lash, til birliklarini izchil qo'llash malakasini shakllantirish orqali samarali natijaga erishiladi. Shu jihatdan, o'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar xorijiy tajribalar bilan uyg'unlashganda, nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham

PEDAGOGIKA

samaradorlikni ta'minlaydi va o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. B.Ma'qulova, S.Sa'diyeva. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari (4-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). — T.: "O'qituvchi", 1997.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; O'rta maxsus, kasbhunar ta'limi markazi. — Toshkent: Faylasuflar, 2013. — 345 b.
3. To'laganov.Sh. Xarbiy xizmatchilarda notiqlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari// Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar, 2020. —3 b.
4. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev Ona tili o'qitish metodikasi.- Toshkent: NOSIR, 2009.
5. B. Qo'chqorov. Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida milliy istiqil g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni berilishi, 2015